



Tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalarni savodga o‘rgatish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari

Isodullayeva Iqboloy Sodiqjonovna –

Farg‘ona davlat universiteti

“Inklyuziv” ta’lim kafedrası o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: iqboloy006@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-9923-0328>

Hoshimova Dildora Abdusalom qizi –

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalarni savodga o‘rgatish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari batafsil yoritilgan. Maqolada ushbu toifadagi bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi individual farqlar, harakat faoliyatining cheklanishi va motor koordinatsiyasidagi qiyinchiliklar o‘rganiladi hamda bu omillar bolalarning o‘qish, yozish va muloqot ko‘nikmalarini egallash jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada pedagogik yondashuvlar, didaktik vositalar va logopedik mashqlarni tanlashda bolalarning motor faoliyati va psixologik holatini hisobga olishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Ta’lim jarayonida individual yondashuv, vizual va amaliy mashqlar, qo‘shimcha yordamchi vositalardan foydalanish orqali tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalarning savodga o‘rganish samaradorligini oshirish usullari ham muhokama qilinadi. Mazkur tadqiqot natijalari pedagoglar, logopedlar va maxsus pedagogika mutaxassislari uchun amaliy yo‘riqnoma vazifasini bajaradi va ta’lim jarayonida inklyuziv metodlarni samarali qo‘llashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: serebral falaji, nutq, savodga o‘rgatish, organik buzilish, rehabilitatsiya, korreksoin-pedagogik, anketa, tashxis.

Особенности процесса обучения грамоте детей с нарушениями опорно-двигательного аппарата

Аннотация. В данной статье подробно освещены особенности процесса обучения грамоте детей с нарушениями опорно-двигательного аппарата. В статье рассматриваются индивидуальные различия в психофизиологическом развитии детей данной категории, ограничения двигательной активности и трудности в моторной координации, а также анализируется, как эти факторы влияют на освоение навыков чтения, письма и коммуникации. Кроме того, показана значимость учета моторной активности и психологического состояния детей при выборе педагогических подходов, дидактических средств и логопедических упражнений. Обсуждаются методы повышения эффективности обучения грамоте детей с нарушениями опорно-двигательного аппарата через индивидуальный подход, визуальные и практические упражнения, использование дополнительных вспомогательных средств. Результаты исследования могут служить практическим руководством для педагогов, логопедов и специалистов по специальной педагогике и способствовать эффективному применению инклюзивных методов в образовательном процессе.

Ключевые слова: церебральный паралич, речь, обучение грамоте, органическое нарушение, реабилитация, коррекционно-педагогическая работа, анкета, диагноз.

Peculiarities of the literacy education process for children with musculoskeletal disorders

Annotation. This article provides a detailed analysis of the peculiarities of literacy education for children with musculoskeletal disorders. It examines the individual differences in the psychophysiological development of children in this category, limitations in motor activity, and difficulties in motor coordination, and analyzes how these factors affect the acquisition of reading, writing, and communication skills. The article also highlights the importance of considering children's motor abilities and psychological state when selecting pedagogical approaches, didactic tools, and speech therapy exercises. Methods for improving literacy education effectiveness through individualized approaches, visual and practical exercises, and the use of additional assistive tools are discussed. The research findings serve as a practical guide for teachers, speech therapists, and special education specialists and facilitate the effective implementation of inclusive methods in the educational process.

Keywords: cerebral palsy, speech, literacy education, organic disorder, rehabilitation, corrective-pedagogical work, questionnaire, diagnosis.

KIRISH

Hozirgi kunda nutqni rivojlantirish muammosi psixologiya va pedagogika sohalarida dolzarb masala bo'lib, bu jarayon inson faoliyatining deyarli barcha shakllarida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nutq insonning nafaqat o'z fikrini ifodalash vositasi, balki fikrlash, bilimlarni egallash, muloqot va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdagi asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois nutqning rivojlanishi pedagogik jarayonda markaziy o'rin tutadi, ayniqsa maktab yoshidagi bolalarni savodga o'rgatish jarayonida. Nutq yetarlicha rivojlangan bola tovush–harf munosabatlarini tez va aniq anglaydi, so'z boyligini to'g'ri va mazmunli qo'llaydi, fikrini yozma shaklda izchil va mantiqiy tarzda ifodalay oladi. Shu tariqa, nutqning yetarli darajada shakllanishi bolaning o'qish va yozishga tayyorgarligida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalar esa o'ziga xos pedagogik yondashuvni talab qiladi, chunki ularning ona tilini o'zlashtirish darajasi va nutq rivojlanish sur'ati sog'lom bolalardan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bunday bolalarda nutqiy va psixomotor ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni individual yondashuvni talab qiladi. Shu bois, pedagog va logopedlar har bir bolaning nutqiy imkoniyatlarini va psixomotor rivojlanishini aniq baholashlari, zaif tomonlarini mustahkamlash va ijobiy tomonlarini rivojlantirish uchun maxsus metodik vositalardan foydalanishlari zarur.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzasidagi aholining taxminan 1–3 foizi turli darajadagi aqliy yoki jismoniy cheklovlariga ega. Shu bilan birga, har bir ota-ona o'z farzandining sog'lom, ruhiy va jismonan baquvvat, fikrlash qobiliyati rivojlangan, axloqiy jihatdan yetuk va ijtimoiy jihatdan moslashuvchan bo'lishini xohlaydi. Shu sababli erta tashxis qo'yish, oilalarga ijtimoiy va metodik yordam ko'rsatish, shuningdek bolaning individual imkoniyatlariga moslashtirilgan ta'lim berish juda katta ahamiyat kasb etadi.

Tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalarni savodga o'rgatish jarayonida individual yondashuv, maxsus pedagogik metodlar va logopedik mashg'ulotlarning qo'llanilishi asosiy vositalardan hisoblanadi. Bu esa bolalarning nutqini, tilini, kognitiv va psixomotor ko'nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishga, ularning ijtimoiy faoliyatga moslashuvchanligini oshirishga hamda maktabga tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi. Shu tariqa, nutqni rivojlantirish va savodga o'rgatish jarayoni faqat individual yondashuv, pedagogik va logopedik metodlarning uyg'un qo'llanilishi orqali samarali natija beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarni jamiyat hayotiga jalb qilish, faol ishtirokchi sifatida shakllantirish bo'yicha hukumatimizning bir qator hujjatlarida maqsadli vazifalar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1 dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil maydagi PF-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonlari, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida", 2024-yil 25-yanvardagi 46-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni rehabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazmunida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ta'lim

xizmatining moslashgan turlarini, differensial yondashuvlarga asoslangan tizimni joriy etish belgilab qo'yilgan. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga alohida e'tibor berilgan. Natijada imkoniyati cheklangan bolalarni ilk bolalik davridan tashxis qilish, tashxis natijalari asosida mos ta'limga jalb etish, individual yo'naltirilgan sifatli ta'lim olishini, muayyan kasbga qiziqishini rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish masalasini hal etish imkoniyati kengaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-sonli "2017–2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakat maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik hujjati sifatida xizmat qiladi. Ushbu qaror maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ularga sifatli ta'lim-tarbiya berish, shuningdek, maktab ta'limi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan ta'minlash bo'yicha davlat talablarini belgilaydi. Qarorda davlat talablari maktabgacha ta'lim muassasalarida 3–7 yoshdagi bolalarni tarbiyalash, rivojlantirish hamda maktabga samarali tayyorlash majburiyatlarini qamrab oladi. Shu asosda bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarining o'sish dinamikasini monitoring qilish imkoniyati yaratiladi.

Davlat talablarida bolalarning aqliy, jismoniy, ijtimoiy rivojlanganligi va o'ziga xos yutuqlarini baholash mezonlari aniq ko'rsatib o'tilgan. Xususan, qarorning 2-bo'lim, 2-bob, 7-paragrafida "Nutq, savod, o'qish va chet tillarini o'rganishga tayyorlash" yo'nalishlari belgilangan bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlar ajratib ko'rsatilgan:

Nutqni rivojlantirish;

Savod va o'qishga tayyorlash;

Chet tillarini o'rganishga tayyorlash.

Nutqni rivojlantirish yo'nalishi bolalarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish, so'z boyligini kengaytirish, fikrni mantiqiy ifodalash hamda kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, 5–6 yoshdagi bolalar uchun davlat talablari quyidagi indikatorlar orqali nutq rivojlanishini baholashni nazarda tutadi:

- Ona tilida erkin gaplasha olish;
- Sodda va murakkab gaplarni tuza olish;
- Muloqot jarayonida sinonim, antonim, omonimlardan foydalana olish;
- So'zlarni bo'g'inlarga ajrata olish;
- Muloqotda umumlashtiruvchi va qiyoslovchi so'zlardan foydalanish;
- Rasmga qarab mustaqil tarzda 5–6 ta gapdan iborat tasviriy hikoya tuza olish;
- Voqeaband rasmga qarab 6–7 ta gapdan iborat, mazmunan bog'langan hikoya tuza olish;
- Ixtiyoriy mavzuda kattalar yordamida ijodiy hikoya yaratish;
- Tilning asosiy tarkibiy unsurlari haqida tushunchaga ega bo'lish.

Ushbu indikatorlar bolalarning nutqiy rivojlanishini aniq o'lchash, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'nalishida asosiy metodologik vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, nutqni rivojlantirish jarayoni maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan barcha faoliyat turlarida integrativ yondashuvni talab qiladi, ya'ni nutqni rivojlantirish boshqa ta'lim yo'nalishlari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, mazkur tadqiqot metodologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq, savod va o'qishga tayyorlash jarayonini tizimli, indikatorlarga asoslangan va amaliy pedagogik yondashuv bilan o'rganishga yo'naltirilgan. Bu esa o'z navbatida bolalarning individual rivojlanishini kuzatish, ularni maktabga tayyorlash sifatini oshirish hamda pedagogik ish samaradorligini baholash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tayanch-harakat a'zolari jarohatlangan bolalarda serebral falaji, poliomiyelet (shol kasalligi asorati), tayanch-harakat a'zolarining turli tug'ma va orttirilgan deformatsiyasi–artrogripoz, oyoq-qo'llarning majruhligi, axondroplaziya yoki xondrodistrofiya – tana, bo'yin, boshning normal rivojlanayotgan bir paytida tug'ma oyoq-qo'l suyaklari o'sishining orqada qolishi, miopatiya – mushak to'qimalarida modda almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan irsiy kasallikda mushaklarning yaxshi qisqarmasligi, qo'l-oyoqni harakatga keltira olmaslik kabilar kuzatiladi. Bundan tashqari tayanch-harakat a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pchiligida miya falaji kuzatiladi.

Bolalar serebral falaji kasalligi hali yetilmagan, shakllanib bo'lmagan miyaning kasalligidir. Onaning xomiladorlik davrida ma'lum kasalliklar bilan kasallanishi, tug'ilish vaqtidagi patologik o'zgarishlar, tug'ilgandan to bir yoshgacha davr ichida bolaning kasallanishi natijasida bosh miyaning harakat zonolari shikastlanadi, uning natijasida esa, miyaning yaxlit yetilishi kechikadi va buziladi. Oqibatda bolaning umumiy hamda nutqiy motorikasi (harakatchanligi) faoliyati buziladi. Nutqning rivojlanmasligi esa, intellektual rivojlanishni sekinlashtiradi. BSF kasalligida miyaning to'liq yetilishi amalga oshmaganligi sababli turli analizatorlar markazlarida o'ziga xos o'zgarishlar yuzaga keladi.

Hozirgi kunda BSF rivojlanishi sababi sifatida bosh miyaning turli xil omillar ta'sirida zararlanishi, miyaning ma'lum bir sohalarida nerv hujayralarining noto'g'ri shakllanishi yoki nobud bo'lishini keltirish mumkin. Ushbu omillarning ta'siri perinatal davrda yoki bola dunyoga kelganidan so'ng qisqa muddatlarda (4 haftagacha) ta'sir etishi kasallik rivojlanish ehtimolini oshirib yuboradi. BSF rivojlanishining eng asosiy omili –bu gipoksiyadir. Falaj yengil bo'lsa, bola o'sgani sari ahvoli yengillashadi, kech o'tiradi, qo'llarini tuzuk ishlata olmaydi. Muskullar o'ta tarangligi tufayli bola yurganda oyoqlari chalishadi, sonlari ichkariga buralib, tizzalari, u faqat oyoq uchida mayda qadam tashlab yuradi. Bola hayajonlanganda, behosdan qattiq tovush eshitganda va boshqalarda muskullar tortishuvi kuchayadi, ixtiyoriy harakatlar qiyinlashadi va aqliy rivojlanishi kechikadi, kasallikning barcha shakllarida mutaxassisga o'z vaqtida murojaat etish va uning tavsiyasiga binoan davolanish zarur.

Ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklidan qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchlarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchlarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb atalib bolalar serebral falajiga ega bolalarni mashg'ulotlarga qiziqishini oshiradi. Afsuski, hozirgi kunda bolalar serebral falaji davosi topilmagan kasalliklar qatoriga kiradi. Ammo, o'z vaqtida boshlangan davo muolajalari ta'sirida bolalar ruhiy jihatdan ham jismoniy jihatdan o'z tengdoshlariga yetib olishga erishish mumkin. 7-9 yoshdagi bolalarda serebral falajli bolalarda o'quv ko'nikmalarini egallashdagi qiyinchiliklar harakt-tayanch a'zolaridagi nuqsonlar oqibatida kelib chiqadi. Ular so'zlarni to'liq idrok etishda qiynaladilar, o'xshash tovush ko'rinishlarini chalkashtiradilar. Natijada bolalarda ko'ruv mukullarida buzilishlar bo'lib, qatorni to'g'ri kuzata olmay uni yo'qotib qo'yadilar, bir so'zdan ikkinchisiga o'tishda qiynaladilar. Bunday bolalar mantiqiy grammatik, ya'ni fazoviy xarakterga ega so'z (chapda, pastda, tagida, ustida va h.k.lar) va jumlar tuzilmalarni qiyinchilik bilan tushunadilar. Me'yorda aqliy rivojlanishga ega bolalar qiyinchiliklarsiz yoshlariga xos bo'lgan matnlarni tushunadilar. Serebral falajlikka (BSF) ega bo'lgan bolalarda (boshlang'ich tushunchalar) sanash ko'nikmasini egalash uchun o'ziga xos qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Ularning ko'pi qiyinchilik bilan o'ngacha bo'lgan sonlar tarkibini o'zlashtirib oladilar; grafik ko'rinishi bo'yicha bir biriga o'xshash sonlarni adashtiradilar, sonlar qatorini o'ng tomondan chapga qarab tuzadilar. Ushbu kasallikning logopedik metodda qisman davolash usuli o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

-o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;

-o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ –muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;

-shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;

-hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;

-o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;

-shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

-insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;

-o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin mashqlarga ajratish mumkin. Mahoratli logoped-pedagog avval ularni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o'quvchilar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalarni savodga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatli yo'nalishdir. Tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalarda savod o'rgatish an'anaviy yondashuvlardan tubdan farq qiladi va quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

Asosiy tamoyillar:

Individual yondashuv har bir bolaning nevrologik profilini hisobga olish;

Integratsiyalashgan metodika pedagogik va terapevtik yondashuvlarni birlashtirish;

Texnologik kompensatsiya assistiv vositalardan samarali foydalanish;

Rivojlanishga yo'naltirilganlik defektni bartaraf etish emas, balki qobiliyatlarni rivojlantirish;

Ijtimoiy integratsiya ta'limni jamiyat bilan bog'lash;

XULOSA

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda bizda bolalarning jismoniy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiladigan keng ko'lamli o'yinlar "ombori" mavjud. Bu o'yinlar oddiy jismoniy mashqlardan tortib, kattalar orasida ham mashhur bo'lgan intellektual va strategik o'yinlargacha bo'lib, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda samarali vosita sifatida ishlatiladi. Shu nuqtai nazardan, tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalarda, xususan BSF (bo'g'imlar va skeletning falaj) bilan og'rigan bolalarda, logopedik va pedagogik yondashuvlarni qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur bolalarning savodga o'rgatilishi jarayonida metodik jihatdan tizimli va kompleks yondashuv talab qilinadi. Ya'ni, logopedik mashg'ulotlar, nutqni rivojlantirish, o'qishga tayyorlash va motorik ko'nikmalarni shakllantirish faoliyatlari mahoratli mutaxassislar nazorati ostida, individual rejalar asosida amalga oshirilishi lozim. Har bir bolaning rivojlanish xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlari hisobga olinadigan holatda, pedagogik va logopedik ishlar samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shuningdek, interaktiv o'yinlar, vizual va tovushli materiallar hamda ijodiy mashg'ulotlar integratsiyalashgan holda qo'llanilganda, bolalarning nutqiy va kognitiv rivojlanishi tezlashadi, ularning mavqelari mustahkamlanadi va o'qish hamda yozishga tayyorgarlik jarayoni sifat jihatdan yaxshilanadi. Shu bois, BSF bilan og'rigan bolalarni savodga o'rgatish va nutqni rivojlantirish ishlari faqat individual yondashuv, muntazam nazorat va

tizimli metodik reja asosida olib borilganda eng maqsadga muvofiq natijaga erishish mumkin.

Zamonaviy pedagogik va logopedik metodlar, o'yinlarga asoslangan interaktiv yondashuvlar hamda individual nazorat birgalikda qo'llanilganda, tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalarni savodga o'rgatish jarayoni samarali, qiziqarli va natijali bo'ladi, bu esa ularning umumiy rivojlanishi va kelajakdagi maktab ta'limiga tayyorgarlik sifatini sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". PF-5270-son Farmon, 2017-yil 1-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". PF-60-son Farmon, 2022-yil 28-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2017–2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". PQ-2707-son Qaror, 2016-yil 29-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". PQ-4860-son Qaror, 2020-yil 13-oktabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". PQ-4312-son Qaror, 2019-yil 8-may.
6. Babayeva Ye.A. Ikki tillilik (bilingvizm) natijasida nutq rivojlanmasligi sabablari. Toshkent: Fan, 2015. – 98 b.
7. V.A.Levin Korreksionnaya rabota s detmi s narusheniyami rechi pri DCP (diagnostika i metodiki). Moskva: Narodnoye obrazovaniye, 2020. – 256 b.
8. R.E.Levina Nedostatki chteniya i pis'ma u detey. Moskva: Prosveshcheniye, 1968. – 48 b.